

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 6 | **2025**
ISSUE 3

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 3



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари доктори, доцент Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD фалсафа доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессор, филология фанлари доктори,
(Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ИБРОҲИМ УСМАНОВ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Бериуний номидаги
Шарқшунослик институти – Тарих фанлари номзоди, доцент
(Ўзбекистон)

АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Андижон давлат университети
фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети в.б. профессор, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доцент, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

ҲЕЛАЛ АБДЕЛРАЗЕК САДЕК АБДЕЛРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор в.б. Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Дизайн–саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философских наук, доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философии (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана, академик Академии художеств Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Международной исламской академии Узбекистана, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры Славянских языков и литературы Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра, доктор исторических наук (США)

ИБРОХИМ УСМАНОВ

кандидат исторических наук, доцент, Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан (Узбекистан)

АХМЕД МУССА АБДАЛЛА СЕЙФЕЛДИН

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор Казахский национальный университет имени аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

профессор Андижанский государственный университет, кандидат философских наук. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганский государственный технический университет, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

профессор Навоийский государственный педагогический институт, доктор философских наук, (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

и.о.профессор Наманганского государственного университета, доктора философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD), по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

доктор философских наук (DSc), исполняющая обязанности профессора, Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан).

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophical Sciences, Docent of National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

IBROHIM USMANOV

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor, Abu Rayhon
Beruniy Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of
Uzbekistan (Uzbekistan)

AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan
(Arab Republic of Egypt)

MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan
(Arab Republic of Egypt)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Andijan State University, Doctor of Philosophical
Sciences, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Docent of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan
(Arab Republic of Egypt)

DILBAR FAYZIKHODJAYEVA IRGASHEVNA

Doctor of Philosophy (DSc), Acting Professor, National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.


Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Madayeva Shahnoza Omonullayevna JADIDCHILIK TA'LIMOTINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY USTUVOR YONDASHUVLARI.....	7
2. Yuldasheva Farida Xujamkulovna GLOBALLASHUV VA SIVILIZATSIYA: TARAQQIY ETISHI VA MUNOSABATLARI....	13
3. Yusupova Dildora Dilshatovna THE NATIONAL MODEL OF UPBRINGING IN THE JADIDIC TEACHINGS.....	25
4. G'aniyev Ithom Muzaffarovich JAHON ADABIYOTI VA JADIDLAR BADIY MEROSIDA INTERTEKSTUALLIK.....	31
5. Amirov Azamat Odil og'li A HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL PERSPECTIVE ON JADIDISM AND ITS INFLUENCE ON THE MODERNIZATION OF MUSLIM COMMUNITIES.....	39
6. Джураева Нигора Авазовна СЕТЕВЫЕ ВЛИЯНИЯ И АВТОПОЭТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ КОГНИТИВНОЙ РЕКОНФИГУРАЦИИ СОЗНАНИЯ ВОСТОЧНОГО ЧЕЛОВЕКА В КОНТЕКСТЕ ЦИВИЛИЗАЦИОННОГО ПЕРЕХОДА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....	45
7. Madayeva Mo'tabarxon Amanullayevna MAQOLLAR – XALQ MADANYATINING KO'ZGUSI.....	57
8. Alikulov Xusniddin Akbarovich ZAMONAVIY EKOLOGIK PARADIGMALAR: ANTROPOSENTRIK VA EKOSENTRIK YONDASHUVLARNING FALSAFIY TAHLILI.....	62
9. Maxkamov Ulug'bek Abdugapporovich DIALOG FENOMENINING TALQINI.....	72
10. Narziev Farxod Qurbon o'g'li MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR NEGIZIDA NUKLEAR OILADAGI AVLODLAR MUNOSABATI.....	80
11. Курбанбаева Улбосын Жумагалиевна УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ КАК ФИЛОСОФСКО-ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ.....	87
12. Suyunova Noila G'ayrat qizi MORTIMER ADLER TA'LIM FALSAFASIGA OID QARASHLARINING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	94

ISSN: 2181-1040
www.tadqiqot.uz**МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE**Narziev Farxod Qurbon o'g'li**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
"Falsafa" kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi.
E-mail: ulke01659@mail.ru**MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR NEGIZIDA NUKLEAR OILADAGI
AVLODLAR MUNOSABATI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18088618>**ANNOTATSIYA**

Maqolada oilaning mikrojamiyat sifatidagi ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilingan. Muallif oilani faqat biologik yoki huquqiy birlik sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy qadriyatlar va shaxslararo muloqot tizimi sifatida ko'radi. Tadqiqotda ikki avlodli, to'liq va nuklear oila modellari, ularning ijtimoiy vazifalari hamda an'anaviy va zamonaviy munosabatlar uyg'unligi yoritilgan. Shu bilan birga, avlodlararo munosabatlar, ota-ona va farzand o'rtasidagi axloqiy aloqalar, oilada ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi omillar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Muallif fikricha, oilaning barqarorligi uning an'anaviy qadriyatlarga tayanishi va zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarga moslashish qobiliyati bilan belgilanadi. Oila inson kamolotining boshlang'ich maktabi, ijtimoiy tajriba va axloqiy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi muhit sifatida talqin qilingan.

Kalit so'zlar: oila instituti, mikrojamiyat, ikki avlodli oila, ijtimoiy munosabatlar, avlodlararo aloqa, an'anaviylik, zamonaviylik, ma'naviy muhit, ijtimoiy falsafa, barqarorlik.

Narziev Farkhod Kurbon ugliIndependent researcher of the "Philosophy"
Department of the Mirzo Ulugbek National
University of Uzbekistan.
E-mail: ulke01659@mail.ru**RELATIONSHIP BETWEEN GENERATIONS IN THE NUCLEAR FAMILY BASED ON
NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES****ABSTRACT**

The article analyzes the philosophical and methodological essence of family as a micro-community. The author considers the family not only as a biological or legal unit but also as a system of social relations, spiritual values, and interpersonal communication. The study examines the models of two generations, complete and nuclear family, their social functions, and the combination of traditional and modern relationships. At the same time, intergenerational relationships, moral connections between parents and children, and factors ensuring spiritual stability in the family have been scientifically substantiated. According to the author, family stability is determined by its reliance on traditional values and its ability to adapt to modern social changes. The family is interpreted as the primary school of human development, an environment that transmits social experience and moral values from generation to generation.

Keywords: family institution, micro-community, two-generation family, social relations, intergenerational connection, traditionalism, modernity, spiritual environment, social philosophy, stability.

Нарзиева Фарход Курбон угли
Исследователь кафедры “Философия”
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.
E-mail: ulke01659@mail.ru

ОТНОШЕНИЯ ПОКОЛЕНИЙ В НУКЛЕАРНОЙ СЕМЬЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется философско-методологическая сущность семи как микрообщества. Автор рассматривает семи не только как биологическую или правовую единицу, но и как систему социальных отношений, духовных ценностей и межличностного общения. В исследовании освещены модели двух поколений, полной и нуклеарной семьи, их социальные функции, а также сочетание традиционных и современных отношений. Вместе с тем научно обоснованы межпоколенческие отношения, нравственные связи между родителями и детьми, факторы, обеспечивающие духовную стабильность в семье. По мнению автора, стабильность семьи определяется ее опорой на традиционные ценности и способностью адаптироваться к современным социальным изменениям. Семья интерпретируется как начальная школа человеческого развития, среда, передающая социальный опыт и нравственные ценности из поколения в поколение.

Ключевые слова: институт семьи, микро общество, двух поколенная семья, социальные отношения, межпоколенческая связь, традиционность, современность, духовная среда, социальная философия, стабильность.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Ikki avlodli yoki to'liq oila, er-xotin va ularning farzandlaridan iborat ijtimoiy birlikdir. Ilmiy adabiyotlarda u nuklear oila nomini olgan. Nuklear oilalardagi avlodlararo munosabatlar ota va ona; ota-ona va o'g'il bolalar; ota-ona va qiz bolalar; o'g'il bolalar va qiz bolalar tizimidan iborat. Ota va ona, o'g'il bolalar va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar avlodlararo munosabatlar sifatida qaralmasligi mumkin, chunki nuklear oilalarda ikki avlodga mansub farzandlar deyarli uchramaydi. Agar har bir avlod yoshini rasmiy me'yorlardan kelib chiqib 30 yosh deb olsak, o'ttiz yil o'tgach tag'in bola tuqqan ayol uchramaydi. Demak, nuklear oilalardagi farzandlar asosan bir avlodga mansubdirlar. Biroq, ota va ona, o'g'il bolalar va qiz bolalar munosabatlari ikki avlodlararo munosabatlarga taalluqli bo'lmasa-da, ular oilaviy munosabatlarga bevosita ta'sir etadilar va bu munosabatlarning faol sub'ektlari sifatida oiladagi ma'naviy muhitni shakllantirish imkoniyatlariga ega. Shu nuqtai nazardan biz ularni, qisqacha bo'lsada, tahlil etamiz. Ota va ona munosabatlari oiladagi barcha munosabatlarning yadrosini tashkil etadi. Avvalo ular ixtiyoriy tarzda er-xotin bo'lib yashashga ahd qilishgani bilan barcha munosabatlarning ibtidosi hisoblanadi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Ilmiy maqolada tarixiylik, diskursiv tahlil, qiyosiy va retrospektiv tahlil metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlar tomonidan ilgari surilgan fikr va g'oyalar va ijtimoiy tarmoqlardagi statistik ma'lumotlar o'rganildi.

Muhokama. Erkak va ayol, ularning oilaviy ittifoqi, hayoti to'g'risida fikrlamagan, yozmagan faylasuf, tadqiqotchi yo'q. Inson hayotidagi eng mo'jiza, hanuz sir bo'lib kelayotgan narsalardan biri erkakning ayolsiz, ayolning erkaksiz yashay olmasligidir. Ularni bir-biriga intilib, birbirini istab yashashga nima majbur etadi? Nega ularni manfiy va musbat fenomenlar sifatida qarash an'anaga aylangan? Poligamiya va poliginiya ijtimoiy huquqiy ta'qiqlangan bo'lsa-da, nega ularga bo'lgan qiziqish, intilish barham topmagan, balki ayrim qit'alarda ular ochiqdan ochiq ma'lum bir

harakatlarga aylanmoqda? Demak, monogamiyada o'zidan bezdiradigan nimalardir bor ekan-da? Er-xotin munosabatlarining umuminsoniy xarakteri keng e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, oilaviy nizolar va ajralishlarning saqlanib qolayotganini nimalar bilan izohlash mumkin? Va nihoyat, o'zbek oilalaridagi qadriyatlar er-xotin munosabatlarini hozir ham regulyatsiya qilish kuchini saqlab qolayaptimi? Bu boradagi ijtimoiy falsafiy muammolar nimalarda ko'zga tashlanadi?... Mazkur savollar ustida cheksiz bosh qotirish va bahs yuritish mumkin. Ilmiy adabiyotlardagi fikrlarni tautologik takrorlamalik uchun biz oila psixologiyasiga murojaat etamiz. Oila psixologi M.Xalilova merfologiya (odatiy jarayonlarga zid, egri to'g'ri kechadigan, xato va anglanishi qiyin jarayonlarni tushuntiruvchi yoki ular sirlarini ochishga intiluvchi bilim sohasi)ga tayanib quyidagilarni yozadi:

1. Vaqti-vaqti bilan oila bo'lib turishning yomon joyi yo'q.
2. Aqlli erkak ayolga uni tushunganini aytadi, axmoq esa buni isbot qilmoqchi bo'ladi.
3. Nikoh uch yarusli sirkka o'xshaydi, birinchi unashtiruv uzugi, ikkinchi nikoh uzugi, uchinchi azob uzugidir.
4. Nikohdan bosh aylanib ketishi mumkin, lekin aynan shuni burunga tushgan mushtdan ham his etish mumkin.
5. O'z nikohini buzilishdan asrab qolish mumkin, faqat to'y kuni kelmasdan.
6. Ayol tabiatning ikkinchi xatosi, erkak esa birinchi, bu ikki xatoning birligidan haqiqatni yaratib bo'lmaydi.
7. Ayolning yashash, erk va ...erkakni ta'qib qilish huquqi bor" [1].

Ushbu fikrlar paradoksal ko'rinishi mumkin, chunki ularda oilaviy munosabatlardagi ijobiy tomonlar aks ettirilmagan. Tanqidiy yondashuv ijobiy jihatlarni rad etishi yoki ularni mensimaslikka olib kelishi mumkin emas. Oilashunos tadqiqotchi quyidagilarni asos sifatida keltiradi: "Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunga kelib dunyo bo'yicha qurilayotgan har 1000 oilaning 600 tasi ajrashishga mahkum, 350 tasi bir tom ostida yashasa-da, bir-birining hayotidan bexabar, e'tiborsiz va hatto ko'rarga ko'zi yo'q. Ayrim majburiyatlar va maqsadlargina bu sochilib ketgan a'zolari oila-degan nom ostida birlashtirib turibdi. Ularni baxtsiz oilalar deb ataymiz. Va nihoyat, yuqoridagi 1000 tadan 50 tasigina baxtli oilalar ekan. Uzoqqa bormang, o'z atrofingizdagilarga bir qarang, risoladagidek ko'ringan har bir oilani ham baxtli deyish mumkinmikan?" [1]. Ajrashishlarga bunday pessimistik qarash noo'rin, chunki ajrashgan erkak yoki ayol mutlaq yakka, so'qqabosh bo'lib qolmay, ular ko'p o'tmay boshqa oila quradi. Bu o'rinda oila institutida yemirilish yoki uning tanazzuli emas, balki oilaviy munosabatlarda demokratlashuv, aloqa doiralarning kengayishi, rang-baranglashuvi kuzatiladi. Nuklear oilalarda bir-biridan zerikish an'anaga aylanib borayapti, buni psixologlar "zerikarli turmushga romantika kiritish" yo'li bilan davolashga intilishmoqda. Shu nuqtai nazardan Sh.Xalilovanning quyidagi fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi: "G'arbda oila degan tushuncha yana 20-30 yil o'tib mutlaqo ishlatilmay qolsa, hayron bo'lmayman. Tezkor va o'zgaruvchan hozirgi davrimiz uchun erkin munosabatlar bir oz qulayligi va ortiqcha mas'uliyat yuklamasligi bilan urf bo'lib bormoqda. Afsus, bunday qulay munosabatlar tug'ilajak farzandlarning ruhan sog'lom va komil inson bo'lishiga soya soladi. Eskicha avtoritar oila tushunchasi hozirgi demokratik ruhda tarbiyalanayotgan avlod uchun to'g'ri kelmas, ammo rusum bo'lib borayotgan erkin munosabatlar asosidagi turmush tarzi nafaqat bizning mentalitetga, balki butun insoniyat kelajagiga rahna solmoqda" [1]. Demak, muallif o'quvchisiga "eskicha, avtoritar tushunchasi" ni taklif qilmoqchi, erkin munosabatlar oila institutiga rahna solarmish?...

Nima uchun merfologiya "vaqti-vaqti bilan oila bo'lib turish" ni tavsiya etayapti? Ikki tomon, erkak va ayol bir-birini sevib turmush qurishgan bo'lsa-da, yillar o'tgach, bu tuyg'u susayishi, befarqlikka, hatto bir-birini yoqtirmaslikka aylanishi mumkin. Ijtimoiy hayotdagi rang-baranglik diqqatimizni chalg'itganidek, oilaviy munosabatlarda rang-baranglikning yo'qligi, his tuyg'ularning almashib turmasligi er-xotin munosabatlardagi maftunkorlikning kamayishiga, hatto mutlaq o'lishiga olib keladi. Demokratiya faqat siyosiy partiyalar tuzish, boshqarish institutlari faoliyatini ommaviylashtirish, saylovlarda qatnashishgina emas, ular oila instituti va undagi er-xotin, avlodlararo munosabatlarga ham ta'sir etadi. Erkin munosabatlarning hayot tarziga aylanib borayotganini har qadamda payqash mumkin. Agar uch-to'rt millionlab yosh yigitlar va baquvvat erkaklarning har yili 7-8 oylab boshqa respublikalarga ishlab kelishga ketishini eslasak, birgina shu

omil oila to'g'risidagi tasavvurlarga qanday ta'sir o'tkazishini anglash qiyin emas. Bu omil oilashunoslarning har qanday dod-voyidan, "eskicha, avtoritar tushuncha" dan kuchli ekanini isbotlashga hojat qoldirmaydi. Shuning uchun "vaqti vaqti bilan oila bo'lib turish" bizning real borlig'imizga aylanib qolgan. Ammo bu ishlab kelish uchun ketayotgan yigit, erkaklarimizning oila institutidan voz kechganini anglatmaydi, ular uzoq o'lkalarda yurganlarida ham oilasida xotini, farzandlari borligini unutmaydi. Bu ulardagi oilaparastlik instinktining saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Lekin bu instinktga allaqachon "erkin munosabatlar" singib qolgan.

Merfologiya topib aytgan: "Aqlli erkak ayolga uni tushunganini aytadi, axmoq esa buni isbot qilmoqchi bo'ladi". Mazkur dilemma erkak bilan ayol o'rtasidagi munosabatlar oxirigacha yechilmas, anglash qiyin jumboq ekanini esga soladi. Hech bir erkak, ayolni to'la bildim, deya olmaydi, ayolning jumboqligi erkak qiziqishlariga qiziqish, intilishlariga intilish qo'shadi. Buni falsafa fanlari doktori, professor V. Alimasov o'zining "Gender falsafasi" asarida quyidagicha izohlaydi: "Ayol qalbida ilohiy ittifoq, erkak qalbida ilohiy ahadlik yashaydi. Qanday bo'lmasin ayol yon atrofidan hamsuhbat, hamdard qidiradi; u uchun yolg'iz qolishdan ham og'ir jazo yo'q. Erkak qalbi yolg'izlikdan ma'no, farog'at, omad qidiradi, shu bois u ayolni sergaplikda ayblaydi. Erkakning sergapligi har doim taajjub uyg'otgan, ayolning yolg'izlikka intilishida esa qandaydir xastalik yashiringan. Ayol va erkak qalbidagi ilohiy kuch ularni bir-biriga intilib, ittifoqni ahadlik, ahadlikni ittifoq bilan to'ldirib yashashga undaydi. Lekin ayol qalbidagi ilohiy ittifoqdan, erkak esa ilohiy ahadlikdan uzoqqa ketolmaydi. Gender munosabatlardagi farqlar ham aslida shundadir" [2]. Shuning uchun ham oqil erkak ayolni tushunganini (aslida tushunmaganini) aytadi, nodon erkak munosabatini isbotlamoqchi (aslida isbotlay olmaydi) bo'ladi. Nikohning "uch yarusli sirk" ekani er-xotin munosabatlari bir tomondan, murakkab, goh quvonchga, goh o'kinchga to'la ekaniga ishora, ikkinchi tomondan, sirk kabi tomosha, o'yinga o'xshashini bildiradi. Hayotda o'yinga o'xshamaydigan, o'yinni eslatmaydigan nima bor? Niderland faylasufi Y. Xeyzinga "hayot-o'yin" deganida haq edi [3]. Bizning fikrimizcha, oilaviy munosabatlarda, xuddi ijtimoiy hayotdagidek, uzluksiz o'zgarishlar ketmoqda, goho ularni sotsiologik so'rovnomalar ilg'ab ololmayapti.

Merfologiyaning "nikohdan bosh aylanib ketishi mumkin, lekin aynan shuni burunga tushgan mushtdan ham his etish mumkin" degan tezisi yarim hazildir. Lekin bu yarim hazil tagida chuqur ma'no yotibdi. Nikoh kunidagi tantana yoshlarning boshini aylantirib qo'yishi, ularda, birgalikdagi hayotimiz shunday shodlikda, quvonchda o'tadi, degan xayolni keltirib chiqaradi. Qolgan kunlardagi munosabatlarini ushbu xayolga quradigan yoshlar tez adashganlariga iqror bo'lishadi, real hayot muammolarga to'la. Avvalo ikki qalbning bir butunga aylanishi, ikki fikr, ikki umid va ikki dilning yaxlitligi tezda ro'y bermaydi. Buning uchun ular hayotning achchiq chuchuklaridan voqif bo'lishlari, bir birlarini sinashlari kerak. Bu sinov asal oyidan iborat emas, u bir umr davom etadi. Er-xotin o'rtasidagi munosabatlarni "doka ro'molning qurishi" deb bejiz aytishmagan. Shuni anglab yetguncha oila sub'ektlari bir-birining nigohi ostida yashashi sir emas. Mana, nimani merfologiya nazarda tutayapti.

Merfologiyaning beshinchi qoidasi ham yarim kinoya tarzida berilgan. Buzish yoki ajrashish uchun nikohga kirishilmaydi (aslida shunday hollar ham uchrab turadi), agar shunday hol yuz bersa, avvalo er-xotin sababchi. Ular o'z va'dalarini, ahdu paymonlarini unutishgan. Ular to'y kuni kelmasdan oldin mashmashasiz, nizolarsiz ajrashishlari mumkin edi. Agar nikoh tuzildimi, tamom, uni asrashga kuch, sabr, chidam topish zarur. Shunday kuch topolmagan er-xotinlar ustidan merfologiya kuladi.

Oltinchi fikr paradoksal xususiyatga ega. Unda F. Nisshening "ayol xudoning birinchi xatosi" degan fikriga tayanilgan. Ayol ham, erkak ham tabiatning xatosi, degan so'zlar navbatdagi o'yindek tuyuladi. Ushbu ikki xatodan "haqiqat" topib bo'lmaydi. Aslida xato erkakda ham, ayolda ham emas, ular o'rtasidagi munosabatlardadir. Ming ming yillardan beri insoniyat ulug'lab, e'zozlab kelayotgan oila instituti hayot aldog'i, xatosi bo'lmasa kerak. Insonga undan xato qidirib emas, balki mohiyat, sir izlab yashash imkoni berilgan. Merfining o'zi ta'kidlaganidek "Yomon boshlangan ish qayg'uni ikki karra oshiradi" [4]. Oilaviy hayotni "yomon" boshlamaslikda hikmat ko'p. Mayli, erkak va ayol tabiatning xatosi bo'lsin, insonga ushbu xatoni to'g'rilash uchun aql, idrok va matonat berilgan. Mehr-muhabbat ham ular qatoridadir.

Merfologiyaning “ayolni yashash va erkakni ta’qib qilish huquqi bor” degan tezisi real munosabatlardan, ayolning rashkli mavjudotligidan olingan. Shuning uchun mazkur tezisda hech qanday paradoks yo‘q. Aslida “ayoldan ko‘ra erkak rashkchidir. Ayol rashk qilsa-da, undan tez kechadi ham; erkak rashkidan hech qachon kechmaydi. U xiyonatni sezgan zahoti keskin chora ko‘rishga kirishadi, hech qanday qarshi dalilni inobatga olmaydi. Shuning uchun ham ajralishning tashabbuskorlari bizda erkaklar bo‘lib qolmoqda. Rashk har doim ham salbiy hodisa emas, ayniqsa yosh va xushsurat, xushqomat xotini bor erkakning rashk qilishi oilani mustahkamlaydi. Bunday ayolning e’tiborini qozonishga intiluvchilar ko‘pdir, shuning uchun rashk uni oilaviy burchiga sodiq qolishga undaydi. Biroq rashk qo‘pol tergash, arzimagan narsadan shubhalanish darajasiga bormasligi zarur. Qo‘pol rashk oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi, balki oxir natijada ularni yemiradi. Rashk mehr-muhabbatning qo‘riqchisi bo‘lishi darkor” [3]. Ha, merfologiya haq: “Sevgi ko‘rdir, ammo nikoh kishilarning ko‘zini ochadi” [4]. Bu qoida haqiqat nafaqat erkak va ayol, shuningdek, barcha oilaviy munosabatlarga taalluqlidir.

Ota-ona bilan o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi avlodlararo munosabatlar paternalistik xususiyatlarga ega. An’anaviy muhitda, jamiyatda o‘g‘il bolani erkakona tarbiyalash, og‘ir jismoniy mehnatga, o‘zini va yaqinlarini himoya qilish, tashqi xavf xatarni bartaraf etish, chidamli, botir, chaqqon va dovyurak bo‘lishga o‘rgatish odatiy hol hisoblanadi. Qiyinchilik va murakkabliklar orqali o‘jizani, oilasini, vatanini sevish o‘g‘il bolalardan talab qilinadigan fazilatlaridir. “Nazarimizda, deb yozadi A.Q. Munavvarov, o‘g‘il bola xulqining o‘ziga xosligi otaning “Menga o‘xshab bajar”, “Men qanday ishlasam sen ham shunday ishla” kabi qoidalarga amal qilishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ota o‘g‘ilini o‘z fikrini muloyim ifodalay olishiga, munozarali voqeada o‘z fikrini qat’iy himoya qilishga, qiziqqonlik, bachkanalik qilmaslikka va nihoyat, o‘zligini, qadrini yo‘qotmaslikka o‘rgatadi. Shuning uchun ham otaning o‘rni o‘g‘il bolani kuchli shaxs sifatida shakllanishida nihoyatda kattadir. Bu sifatarni esa ota o‘zining shaxsiy namunasida o‘g‘liga, onaga, ayolga, xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatlarida qaror toptirib boradi” [5]. Albatta, bu fazilatlarining shakllanishi ota-ona bilan o‘g‘il bola o‘rtasidagi diaxron aloqalar, ushbu aloqalarning ma’naviy axloqiy yo‘naltirilganligi, o‘g‘il bola psixofiziologik tuzilishi, tashqi muhit bilan aloqalari va ularning ongga ta’siri kabi ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi. O‘g‘il bola bu omillarning barchasini ijobiy qabul qiladi, ularni o‘zlashtiradi, deb aytishimiz mumkin emas. Jismoniy kuchli, quvvatli, matonatli bo‘lish ma’lum bir qarshiliklarga duch kelish, ularni yengish orqali shakllanadi. Bu o‘rinda quruq didaktika ketmaydi, demak, o‘g‘il bolani mashaqqatlarni, turmush qiyinchiliklarini yengishga o‘rgatish ob’ektiv talabdir. Tan olish kerakki, jismoniy kuchlilik, chaqqonlik va dovyuraklik ba’zan o‘g‘il bolani berahm, bedil qilib qo‘yishi mumkin. Hayotimizda, u yoki bu sport sohasida katta yutuqlarga erishgan ba’zi yoshlarning destruktiv kuchlar ta’sirida reketga, bosqinchilikka, o‘jiz kishilarga zulm o‘tkazishga, ularni talashga qo‘shilib qolganiga misollar yetarlicha topiladi. Jismoniy tayyorgarlik qo‘l oyoq, mushaklarni baquvvat qiladi, qomatni tik o‘stiradi, xatti-harakatlarni chiroyli, dadil qiladi, kishida o‘z kuchiga ishonch va kelajakka optimizm uyg‘otadi. Shu nuqtai nazardan o‘g‘il bolalarga bo‘lgan munosabatlar qizlarga bo‘lgan munosabatlardan farq qiladi. Sharq axloq odobi, pedagogikasi va didaktikasi o‘g‘il bolalarga bo‘lgan munosabatlarni qat’iy tartibda olib borishga chorlaydi. Oilada bu vazifani asosan erkak kishi yoki oila boshlig‘i bajaradi. Jismonan salomatlik, mehnat, badan tarbiya mashqlari o‘g‘il bolaga quvvat, barkamol o‘sishiga yordam beradi. Abu Ali ibn Sino aytadiki, “Jismoniy mashqlar bilan doimo mo‘tadil shug‘ullanib borgan kishi har qanday davoga muhtoj bo‘lmaydi” [6]. Demak, ota-ona bilan o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi munosabatlar, tarbiya, ma’rifiy ishlar ana shu an’anaga qurilgan.

O‘g‘il bolalar bilan munosabatlarda yana bir jihat ustuvordir, u bolani oila boshlig‘i bo‘lishga, uni zarur moddiy ne’matlar bilan ta’minlashga, bu vazifalarni ixtiyoriy tarzda o‘z ustiga olishga, oila farovonligi uchun mas’ullikka o‘rgatishdir. O‘g‘il bolalar oila boshlig‘i bo‘ladi, degan fikr an’anaviy, meros bo‘lib o‘tgan. Ota-ona bu fikrni o‘zlari bilmagan tarzda takrorlashadi, o‘g‘il bolani mas’uliyatli bo‘lishga da’vat etishadi. Bunda hech qanday konservatizm, egoistik fikrlarni shakllantirish yo‘q. Har bir ijtimoiy birlik boshqarishga, tashkil etilishga muhtoj bo‘lgani uchun oila ham shunday institutdir. U ratsional va ma’naviy axloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan tashkil etilishga muhtoj. Bu vazifa, o‘zbek xalqi an’analariga muvofiq, erkak, o‘g‘il bola zimmasiga yuklatiladi. Maxsus sotsiologik

kuzatuvlar ham, o'zimiz o'tkazgan savol javoblar ham mazkur an'ananing yashovchanligini tasdiqlaydi.

Ota-ona bilan o'g'il bolalar o'rtasidagi munosabatlar, ko'p hollarda, patriarxal xususiyatga ega bo'lib, bu munosabatlar o'g'il bolaning kelajakda oila boshlig'i va bosh ta'minotchi sifatida shakllanishiga yo'naltirilgan. O'g'il bola tarbiyasi nafaqat og'ir, balki juda mas'uliyatli jarayondir. Chunki o'g'il bola xuddi qurol kabi — ham kuchli, ham xavfli bo'ladi. U doim o'zini sinab ko'rishni, haqiqiy erkakligini isbotlashni, kuch va imkoniyatlari chegarasini bilishni istaydi. Shu tufayli u ba'zan o'zini xavfga urib, hatto boshqa bolalar bilan urishishigacha borishi mumkin. Bu jarayon — bola tabiatidagi ichki kuchlar, jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini teran anglash, o'zini jamiyatda topish va mavqeini belgilashga urinishidir. Shunday ekan, ota-onalar, ayniqsa, otalar o'g'il bola tarbiyasida mas'uliyatli va mushohadali bo'lishi, unga har jihatdan kuchli, lekin insonparvar, adolatli va madaniyatli erkak bo'lib yetishishida namuna bo'lishi lozim. Chunki u yerda nazoratsiz qolgan ehtiros, tushuntirilmagan erkinlik, ta'limsiz kuch — hayotda kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, erkaklar o'g'il bolalar urishishiga xotirjamroq qarashadi, hatto birga bir chiqib, o'z kuchini sinab ko'rishga chaqirishadi va bu kurashni maroq bilan kuzatishlari ham mumkin. Ayni vaqtda ayollar xavotirga tushishadi va bu tartibsizlikka tezroq chek qo'yishga harakat qilishadi. Ona uchun farzandining xavfsizligi muhim, tinchgina uyda o'tirsa yana yaxshi. Shuning uchun o'g'il bolaning tarbiyasi yolg'iz ona qo'lida qolganda jiddiy muammolar kelib chiqadi" [1]. Demak, ota-onaning o'g'il bolaga ta'sirida ular har ikkalasining ham hissasi bo'lishi darkor. Ota-ona bilan o'g'il bolalar o'rtasidagi munosabatlar ana shu uyg'unlikni taqozo etadi. Bu munosabatlar, aloqalar negizida jamiyatning asosiy maqsadi, ya'ni barkamol avlodni tarbiyalash yotadi.

Oilaning tashqi, ekstravertiv aloqalari uni Vatan, el-yurt, mamlakat va davlat tashvishlarini unutmashlikka undaydi. Oila mavqei mazkur aloqalar orqali shakllanishidan ota-ona yaxshi xabardor. Tashqi, ekstravertiv aloqalar qanchalik samarali kechsa, oila farzandlarini el yurtga foyda keltiruvchi kasb korga o'rgatishga, unda vatanparvarlik, fidoiylik va altruizm kabi xislatlarni tarbiyalashga intiladi.

Oilada qizlar bilan munosabatlarni nozik masalalar qatoriga kiritishadi. Qizlarning psixofiziologik xislatlari, ruhiy emotsional holatlari, oila institutiga alohida mehri, o'troq va uyim, xonadonim deb yashashga moyilligi ularga bo'ladigan munosabatlarni nozik olib borishni taqozo etadi. Sharqona an'anaga muvofiq xotin-qizlar alohida e'tiborni, ehtiyotkorona munosabatlarni, avaylab asrashini taqozo etadigan xilqatdir. "Onangni kiftingda tutsang, singlingni boshingda tut" deyiladi o'zbek maqolida. Bu aslida ayol zotiga ehtiromdir.

Xo'sh, nima sababdan o'zbek oilalarida xotin-qizlarga alohida e'tibor beriladi? O'g'il bolalardan ko'ra qiz bolalarni avaylashga, sevishga da'vat etiladi? Oilada ota-ona bilan qiz bolalar munosabatlari gender notenglikni keltirib chiqarmaydimi?

Avvalo shuni aytishimiz kerakki, an'anaviy muhitda, jamiyatda qizlarga bo'lg'usi uy bekasi, farzandlar onasi, erining yostiqdoshi deb qarash mavjud. Bu borada juda ko'p fikrlar bildirilgan, tadqiqotlar o'tkazilgan. Xotin-qizlarga estetik go'zallik timsoli, uy xonadonni ozoda, sarishta tutish, erini xushmuomala kutib oladigan kam suqum farishta qilib ko'rsatish keng tarqalgan. Murakkablashib borayotgan ijtimoiy hayot, mehnat jarayonlarining avtomatlashtirilayotganiga qaramay, ishdagi uzluksiz yangilanishlar, islohotlar, kishilararo munosabatlarning rang-baranglashib, murakkablashib va noziklashib borayotgani ruhiyatga ta'sir etmay qolmaydi. Oila moddiy ta'minotini va farovonligini o'z ustiga olgan erkakning horib, charchab uyga qaytishi tabiiy holdir. Bu o'rinda uni quchoq ochib kutadigan yaqinlari depressiyadan, nizolardan qutqarishi mumkin. Ha, shunday paytlarda erkakka hamdard, dilini shod qiladigan farzandlar, nevaralar kerak. Ziddiyatlarga to'la murakkablashib borayotgan munosabatlar erkakni ruhiy tushkunlikka, depressiya va stressga yetaklashi mumkin. Shuning uchun ham u oilasini tashqi tashvishlardan xalos qiluvchi, asrovchi qo'rg'on deb biladi. Lekin xotin-qizlarning estetik go'zalligi uchungina sevmaydilar, ular ijtimoiy hayotimizni ham mazmundor, zavqli, faoliyatimizni samarali qilishlari mumkinligi uchun e'zozlanadilar. Bola tug'ish va tarbiyalashda ular benazir, ammo bu ularning faqat uy bekalari bo'lib qolishini ulug'lashga yetaklamasligi kerak. Ba'zi ilmiy adabiyotlarda, kitoblarda xotin-qizlarni ana

shu fazilatlar sohibi bo'lgani uchun e'zozlashga da'vatlar uchraydi. Mana, bitta misol. "Bo'lg'usi muhtarama va yosh onalar, deb yozadi pedagogika fanlari doktori, professor S.Ochil, umuman, ona eng pokiza, eng sabr matonatli, eng qalbi sezgir, eng qudratli zotdir. Onalar ko'zlarida yosh ko'rsam, qalbim ko'zlaridan qora qon oqadi. Shul bois va sizlarni odatdan bo'lak his tuyg'u bilan sevganim uchun o'gitimni aytmoqchidim:

Eringiz oldida o'zingizni pastroq tuting, u ishdan asabiylashib kelgan bo'lishi mumkin. Salgina noo'rin so'z bilan, keskinroq muomala bilan oraga sovuqlik tushishi tabiiy. "Ayollar bilan erkaklar teng huquqli" degan o'rtaga rahna soluvchi shiorni poshningiz ostiga olib ezing. Yana bir narsa. Eringiz ishdan yoki ko'chadan kelganda, undan to'rt-besh daqiqa vaqtingizni ayamang. Uni ochiq chehra bilan, sochingizni silliq qilib tarangan, o'zingizga bir oz zeb bergan holda "yaxshi keldingizmi?" deb, kutib oling. Bosh kiyimini va boshqa kiyimlarini olib ilgichga chiroyli qilib ilib qo'ying. Ko'rpacha to'shab, yoniga yostiq qo'yib, uni o'tqazing. Qisqagina shu vaqtdagi iltifotingiz bilan eringizning charchog'i tarqaladi, sizga bo'lgan mehri yanada ortadi. Shunday ishingizni uzluksiz davom ettiring. Oilangiz tobora mustakamlana boradi. Takror aytamanki, zinhor huquq talasha ko'rmang!" [9]. Bunday da'vatlarni yana keltirish mumkin. Ilm xodimining ayollarning teng huquqli bo'lishini bunday tushunishi taajjub uyg'otadi.

Xulosa. O'zbek nuklear oilalarida qizlar tarbiyasi, odatda, onalar zimmasida bo'ladi. Ona farzand uchun — ayniqsa, qiz bola uchun — hayot maktabi, taqlid ob'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Ona o'z hayot tajribasi, turmushga va erkakka bo'lgan munosabati orqali qiziga «o'rnak» bo'ladigan modelni taqdim etadi. Qiz bola ko'p hollarda onasining hayotga munosabatini, xulqini, nutqini sinovdan o'tgan, tayyor qabul qilish mumkin bo'lgan hayotviy dastur sifatida qabul qiladi. Biroq zamonaviy o'zbek oilalaridagi qizlar tarbiyasida boshqacha tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Yangi avlod vakillari — qizlar — mustaqil fikrlashga, o'z hayot yo'lini o'zlari tanlashga, qaror qabul qilishda faolroq ishtirok etishga intilayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Bu ikki jihatga dalolat beradi: avvalo, zamonaviy qizlarimiz jamiyatda kechayotgan gender o'zgarishlardan xabardor, ularga munosabat bildirishga tayyor. Ikkinchidan, qizlar o'z taqdirini mustaqil belgilashga, kelajakda shaxsiy hayoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorgarlik ko'rayotirlar. Albatta, gender o'zgarishlardan xabardor bo'lish — bir narsa, o'z huquqlarini hayotda faol qo'llash va jamiyat oldida o'zini teng mavqeda namoyon qilish — boshqa narsa. Ammo shunisi ayonki, bugungi kunda qizlarimiz internet texnologiyalari orqali dunyo bilan bog'lanmoqda: ularning ba'zilar efiopiyalik, belgiyalik, germaniyalik, inglizlik, amerikalik, eronlik va hatto avstraliyalik erkaklar bilan turmush qurmoqda. Bu holat zamonaviy qizlarning jahon miqyosida o'zini izlayotganini, global tendensiyalarga ochiq ekanini ko'rsatadi. Ota-ona bilan qiz bolalar munosabatlarida bunday internatsionalizmi maxsus targ'ib etish kuzatilmaydi. Ammo qizlarimiz chet ellik tengdoshlari bilan oliy o'quv yurtlarida yoki internet orqali tanishib, bir birlarini yoqtirib oila qurayotgani rostdir. Bunday munosabatlar bundan keyin yanada kengayishi mumkin, chunki chet tillarni, ayniqsa ingliz tillarini o'rganishga berilayotgan katta e'tibor faqat ma'rifiy soha bilan cheklanib qolmaydi, ular oilada yangi, noan'anaviy munosabatlarni shakllantirishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalilova Sh. Oila nomli davlat sirlari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. 7 b.
2. Alimasov V. Gender falsafasi. - Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashr., 2008. 88 b.
3. Xeyzinga Y. Homo lunds. V teni zavtrashnego dnya. - Moskva: OOO Izd. AST, 2004.
4. Polnoe sobranie zakonov Merfi. - Minsk: OOO Popurri, 2005. S. 95.
5. Alimasov V. Gender falsafasi. - Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashr., 2008. 78 b.
6. Munavvarov Q.A. Oila pedagogikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1994. 82-83 b.
7. Abu Ali ibn Sino. Men anglagan dunyo. - Toshkent: Sharq, 2015. 245 b.
8. Xalilova Sh. Oila nomli davlat sirlari. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. 173 -174 b.
9. Safo O. Qalb gulshani // Oila bir gulshanki...-Toshkent: O'qituvchi, 1996. 90 b.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.

ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729 “СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА”.

PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000